

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831188>

Jo'rayeva Zinnura Mahmudovna

Tarbiya va xuquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lif va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, bola tarbiyasi davlat miqyosidagi siyosiy muammo ekanligi, bolani tarbiyalash, unga ilm berish faqatgina ustozzagina xos emas, balki ota-onaga, butun jamyatga tegishli ekani, bola tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xatoliklar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, bola, ilm, talim-tarbiya, maktab, odob-axloq, barkamol rivojlangan,*

Ta'lif - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lif jarayonida ma'lumotlar olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lif va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Inson ilmli bo'lishni istasa u eng avvalo tarbiyalanishi kerak. Tarbiyali inson mukammal ilm sohibi bo'la oladi. Har bir mamlakatning bugungi va ertangi kuni o'sha yurtdagi maktablarning holatiga, ta'lif tarbiyaning sifatiga bog'liq. O'sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday inson bo'lishiga qarab, yurtimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham: "Kelajak yoshlarning qo'lidadir" - deyishadi. Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani "kichik vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog'i kerak. Bolaga o'zi yaxshi fazilatlar bilan o'rnak bo'la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmli, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo'ladi. "Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyatini shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi" Aynan shu vaqt oralig'i ota-onadan katta mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtida ota-ona o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'llanishi kerak. Ayna shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

Bola 6-7 yoshga to'lib maktab ostonasiga qadam qo'yguniga qadar oilada --- ota-onasi bag'rida ulg'ayadi, atrof-muhitni, borliqni anglaydi, fikr yuritadi, odob-axloqni, umuman olganda insonlarga xos barcha fazilatlarni oiladan, atrofidagi yaqin insonlaridan o'rganadi. Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lif

berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor bergenlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "al-Adab almufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroqli odobidan umid qilgan otaona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

– farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;

– odamlar xursandchiliginin baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, molmulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;

– farzandingizga o'zgalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

– yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering.

Mirzo Ulug'bekning oila muhitini yaxshilash, sog'lom tarbiya berish haqida quyidagi fikrlarni bildirgan. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, yani oila muhim o'rinni egallaydi. Oilada otaonalar o'qimishli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi ornak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishini ta'kidlaydi.

Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muhim o'rinn tutishni alohida ta'kidlaydi, oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina bola tarbiyasida yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning takidlashicha, inson tug'ilgan kundanoq tarbiyaga muhtojdir, uning ilk tarbiyachilari, albatta, ota-onalardir.

Fitrat jamiyat rivoji va yurt farovonligida oilaning roli haqida fikr yuitib, o'zining "Oila" asaida shunday deydi: "Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi.

Ammo hozirgi kunda bolalarning tarbiyasiga e'tibor bermayotgan kishilar ham ko'p uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida bolalar tarbiyasida mahallaning o'rni kamayib borayotganligi, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini qayd etdilar". Haqiqatdan ham, kundan kunga bunday insonlar soni

ortib bormoqda. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi yoshlar ham kattalar tanbeh berganda “sizga nima?”, “bu mening ishim, ishimga aralashmang”, “kimsiz o'zi menga aql menga aql o'rgatadigan?” zaylidagi gaplarni aytishyapti. Bu ham tarbiyasizlikning bir namunasidir. Aynan shu inson oilada noto'g'ri tarbiya topgan yoki tarbiyasining qaysidir joyida xatolik ketgan. Hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rinn berilgan.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 23-avgustda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida umumta'lim maktablari o'quv dasturiga “Tarbiya” fanini kiritish va o'qitish tashabbusi ilgari surilgan edi. Bu xayrli tashabbus, chin ma'noda, kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yosh avlod tarbiyasi, ta'lim olishi, buyuk ajdodlarimizga munosib farzandlarni voyaga yetkazishdek hayotiy zarurat bilan chambarchas bog'liq. Shu maqsadda maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etib, “Milliy g'oya”, “Odobnama”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg'usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda “Tarbiya” fanini joriy etish zarurligi qayd etildi. Mazkur tashabbus ro'yobi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyulda “Umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choratadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi va hozir shu asosda keng ko'lamli ishlar olib borilyapti. Ma'lumki, tarbiya o'z mazmun-mohiyati bilan milliy hamda umuminsoniy mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida ijobiy, olıyanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Boisi, tarbiyasi og'ir, ma'naviyati qashshoq yoki ma'naviyatdan mahrum bo'lgan odamdan biror ezgulik kutish mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o'ylamaydi. Atrofqa, va hatto ota-onasi, qarindosh-urug'lari taqdiriga ham befarq, loqayd holda yashaydi. Tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, bugun xalqimizning “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” buyuk maqsadiga erishuvida ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Mazkur masala o'ta dolzarb bo'lganligidan barcha zamonlar donishlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan. Masalan, buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so'zlarini bor. Zardushtiylik ta'limoti uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: “Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal”. Shu uchalasiga rioya qilgan odam zardushtlar nazdida kamolotga yetgan hisoblangan. Imom Buxoriy bu xususda yanada yorqinroq so'z aytgan: “Bolaning tabiatni rivojlanishga moyil bo'ladi, uni qanday g'oyalar bilan to'ldirish ota-onasi va ustozga bog'liq”. Maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni, vaholanki, o'z shaxsi uchun zarur

bo‘lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o‘tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko‘paygan bo‘ladi. Ya’ni u o‘z obro‘sini endi nafaqat oila a’zolari o‘rtasida, aksincha, jamiyat o‘rtasida oila obro‘sini o‘z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi. Maktab davrida turli vaziyatlar tufayli har xil tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar farzandlariga o‘qituvchisi haqida salbiy fikr bildirmasdan, balki qandaydir tushunmovchilik tufayli o‘qituvchining noto‘g’ri yo‘l tutganligini tushuntirishi lozim. Pedagog tomonidan qandaydir noo‘rin ish sodir bo‘lgan bo‘lsa, ota-onalar buni farzandiga bildirmasdan, o‘qituvchisi bilan alohida gaplashishi lozim. Sababi, bu hodisa o‘quvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ruhiy muhiti sog‘lom oila a’zosi bo‘lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo‘lmasin, bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug‘dirmaydi. Chunki maktabda o‘qituvchi hamma bolalarga bir ko‘z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan maktab uning o‘zi uchun kerak bo‘lgan burch ekanligini uqtirish kerak. Ana shunday yondashuvgina bolaga uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burchi sifatida qarashga o‘rgatadi.

Shuningdek, oilada bolani hech vaqt uyaltirmaslik va izza qilmaslik lozim. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni og‘ir esdan chiqaradi. Ko‘pchilik orasida izza bo‘lganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin. Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sog‘lom bo‘lsin, desangiz bolangizning hozirgina qilgan noo‘rin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan xatti-harakatini qoralab uni jazolab o‘tirmang, ayniqsa, voqeani yuziga solib, izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif bo‘lishi xavfi bo‘lsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin. Bolani xato bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishlardan ogohlantirib, tarbiyalab borsangiz, uning oiladagi o‘rnini mustahkamlagan bo‘lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarova H.B., Yosh avlod tarbiyasida oila manaviyatining o‘rni. <https://buxdu.uz/index.php/ru/90-maqolalar/>
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Najmidinova Karimaxon Usmonovna. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni. – Toshkent:Adolat, 2016.
4. Mamatqulov A. “Ta’lim sifatini oshirishda oilaning o‘rni”. Pedagogik ta’lim klasteri:muammo va yechimlar. Interntional conference. Chirchik, Uzbekistan. 2021
5. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga,jamiyatga va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatlarni tizimli rivojlantirish / International Scientific and Practical conference “Topical Issues of Science” Xalqaro konferensiyasi. - USA: NEW York university.

6. Karamatova D.S. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'zo'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini tizimli rivojlantirish // “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.

7. Maktab oiladan boshlanadi. – T.: Yangi asr avlodi. 2013.

8. Salaeva M.S. O'tmish mutafakkirlarimiz ota-onas va farzandlar munosabatlari xususida // Mahrifat yog'dusi. № 3. 2000.–B. 76-80.

9. Salaeva M.S. O'zbek oilalarida bolalarning o'z oilasidagi hayotga munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlari. /«O'zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy psixologik muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani mahruzalari to'plami. –TDIU. 24-25 may 2000 yil. –B. 81-82.